


## MILLIY VALYUTA KURSIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR



*O'rinboyev Suhrobbek Anvarjon o'g'li*

Andijon davlat texnika instituti Muhandislik

iqtisodiyoti va boshqaruv fakulteti

Bank ishi va audit 4-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Milliy valyuta kursi mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini va raqobatbardoshligini aks ettiruvchi eng muhim iqtisodiy ko'rsatkichlardan biridir. Ushbu maqolada milliy valyuta kursining shakllanishida ishtirok etuvchi asosiy omillar — ichki va tashqi iqtisodiy omillar, Markaziy Bankning siyosati, inflatsiya, xalqaro valyuta bozori va O'zbekiston iqtisodiyotiga bo'lgan ta'siri tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** milliy valyuta kursi, so'm, Markaziy Bank, iqtisodiy siyosat, inflyatsiya, tashqi savdo, eksport

**Аннотация:** Курс национальной валюты является одним из важнейших экономических показателей, отражающих стабильность экономики страны и ее конкурентоспособность. В данной статье анализируются основные факторы, влияющие на формирование курса национальной валюты, такие как внутренние и внешние экономические факторы, политика Центрального банка, инфляция, международный валютный рынок и влияние на экономику Узбекистана.

**Ключевые слова:** курс национальной валюты, сум, Центральный банк, экономическая политика, инфляция, внешняя торговля, экспорт.

### Kirish.

Milliy valyuta kursi, bir mamlakatning pul birligining boshqa mamlakatlar pul birligiga nisbatan qiymatini ifodalovchi iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, iqtisodiy

tizimning muhim parametri sifatida qaraladi. Ushbu kurs nafaqat valyutalarning o‘zaro almashinushi uchun zarur bo‘lgan indikator, balki davlatning iqtisodiy barqarorligi, raqobatbardoshligi, hamda xalqaro savdosi va investitsiyaviy faoliyatining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Milliy valyuta kursining shakllanishi va o‘zgarishi esa bir qator ichki va tashqi omillarga bog‘liqdir. Ushbu omillar, avvalo, davlatning tashqi savdo siyosati, mamlakatda yuz berayotgan inflatsiya jarayonlari, Markaziy Bankning amalga oshirayotgan monetar siyosati, global iqtisodiy sharoitlar va xalqaro moliyaviy bozorlarning o‘zgarishlaridan iboratdir.

### Asosiy qism.

Milliy valyuta kursi, iqtisodiy muhitga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Kursning o‘zgarishi nafaqat iqtisodiy o‘sish va barqarorlikni ta’minlashda, balki narxlar darajasi, inflatsiya, xalqaro savdo, eksport va import hajmi, mamlakatning tashqi qarzlarini va ularni qaytarish sharoitlari kabi ko‘plab iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sir qiladi. Misol uchun, milliy valyutaning qadrsizlanishi (devalvatsiya) import mahsulotlarining narxlarini oshirishi, ichki bozorni qimmatlashtirishi va inflatsiyani kuchaytirishi mumkin. Shu bilan birga, eksportchilarga o‘z mahsulotlarini xorijda arzonroq narxda taklif qilish imkoniyatini beradi. **Milliy valyuta kursi o`zi nima?** O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 22.10.2019 yildagi O‘RQ-573-sonli “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida” qonunida unga quyidagicha ta’rif berilgan: **valyuta kursi — chet el valyutasining O‘zbekiston Respublikasi valyutasiga nisbatan kursi.**<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el valyutasini sotib olish va sotish bo‘yicha operatsiyalarda valyuta kursi chet el valyutasiga bo‘lgan talab va taklifdan kelib chiqib, shartnomaviy asosda belgilanadi. **Valyuta kursi qanday aniqlanadi? Kross-kurs** (inglizcha "cross-rate") — bu ikki valyutaning kursining, uchinchi valyutaga nisbatan aniqlanishi. Ya’ni, bir valyutaning boshqa valyutaga nisbatan kursini, ular uchinchi valyutaga (odatda, AQSh dollariga yoki yevroga) nisbatan hisoblash orqali aniqlash hisoblanadi. Misol uchun, Misol uchun:

- 1 EURO = 1.14 USD (1 yevro = 1.14 AQSh dollari)

<sup>1</sup> 22.10.2019 yildagi O‘RQ-573-sonli “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida” qonuni

- 1 GBP = 1.31 USD (1 funt sterling = 1.30 AQSh dollar)

Endi, **1 EURO = ? GBP** (Angliya funt sterlingga nisbatan kursini bilmoxchi bo‘lsak):

$$1 \text{ EURO} = \frac{1.10}{1.30} = 0.8461$$

Milliy valyuta kursiga juda ko‘p omillar, ya’ni valyuta kursiga uning valyuta bozoridagi mashhurligi va miqdori, markaziy banklarning harakatlari va kutilmagan holatlar - inqirozlar, ofatlar, urushlar ta’sir qiladi. Markaziy Bank milliy valyuta kursining shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi. U o‘zining monetar siyosati orqali iqtisodiy holatni boshqaradi va inflyatsiyaning oldini olishga harakat qiladi. O‘zbekistonning Markaziy Banki kursni nazorat qilishda faqat tashqi iqtisodiy holatni emas, balki ichki inflyatsiya, pul massasi va foiz stavkalarini ham hisobga oladi. Markaziy bank dam olish kunlaridan tashqari har kuni so‘mning xorijiy valyutalarga, jumladan, AQSh dollariga nisbatan rasmiy kursini belgilab beradi. Bu valyuta kursiga ta’sir etuvchi omillar ko‘pligini va tez tezkorligini anglatadi. Biz esa bu o‘zgarishlarni, xususan, dollar kursidagi o‘zgarishlarni doim kuzatib boramiz, chunki dollar kursi boshqalarga qaraganda tez-tez o‘zgarib turadi va xalqaro to’lov larning yarmiga yaqini dollarda amalga oshiriladi, chunki AQSh dunyodagi eng yirik iqtisodiyotdir va investorlarning eng ishonchli davlatidir. Umuman olganda, milliy va jahon valyutalarining bozordagi mavqeiga ta’sir qilishi mumkin bo’lgan hodisalarni ikkita katta toifaga bo’lish mumkin:

- Davlatning ichki siyosiy va iqtisodiy omillari;
- Valyuta kurslariga bosim o’tkazadigan tashqi hodisalar.

**Ichki omillar.** Valyuta qiymatining o‘zgarishining ichki sabablari mamlakatda sodir bo’lgan barcha muhim moliyaviy, iqtisodiy va siyosiy xodisalarni o’z ichiga oladi:

1. YaIM (yalpi ichki mahsulot) - bu ko’rsatkich davlat iqtisodiyotining umumiyligi holatini aks ettiradi. YaIMning o’sishi xizmat ko’rsatish sohasi va ishlab chiqarishning o’sishidan dalolat beradi. YaIMning o’sishi valyuta kursini mustahkamlaydi, pasayishi esa uni zaiflashtiradi.

2. Ishsizlikning oshishi yoki kamayishi. Mamlakatda ishsizlar sonining ko'payishi milliy iqtisodiyotning ahvoli yomonlashganidan dalolat beradi va milliy valyuta qiymatining pasayishiga olib keladi.

3. Import/eksport darajasi. Import qilinadigan tovarlar hajmining o'sishi davlat iqtisodiyotining pasayishidan dalolat beradi, bu esa milliy valyutaning holatiga salbiy ta'sir qiladi. Agar eksport hajmi oshsa, vaziyat teskari yo'nalishda o'zgaradi.

4. Mamlakatda inflyatsiya darajasi. Bir necha hisobot davrlari uchun oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari narxlarini taqqoslash yo'li bilan hisoblanadi. Har bir inflyatsiya ortishi bilan milliy valyuta qadrsizlanadi.

5. Davlat byudjeti muvozanati. Byudjet taqchilligi, ayniqsa uni qoplash uchun pul massasining qo'shimcha emissiyasi amalga oshirilsa, tabiiy ravishda inflyatsiya sur'atlarining keskin o'sishiga va valyuta kurslarining pasayishiga olib keladi.

6. Davlat qarzi darajasi. Qarzning yuqori darajasi, ayniqsa, agar u tashqi qarzning katta qismini o'z ichiga olsa, tabiiy ravishda valyutaga bo'lgan talabning oshishiga olib keladi.

**Tashqi hodisalar.** Tashqi omillar deganda mamlakatdan tashqarida sodir bo'ladicidan va ayni paytda valyuta kursiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan turli hodisalar tushuniladi. Bunda eng muhim narsa - bu ma'lum bir davlatning milliy valyutasiga bo'lgan ishonch darajasi. Xususan, agar investorlar uchun vaziyat qoniqarli bo'lmasa va ular valyutaga ishonmasa, bu joriy kursning qulashiga olib kelishi mumkin.

1. Kotirovkalarga bosim o'tkazadigan yana bir muhim omil - bu xom ashyo va oltin narxi. Shu bilan birga, agar energiya resurslarini yetkazib beruvchi mamlakatlar uchun ularning narxining oshishi milliy valyutalarning barqaror o'sishiga sabab bo'lsa, import qiluvchi mamlakatlarda bu, aksincha, valyuta kurslarining pasayishiga olib keladi.

2. Eng so'nggi valyuta kurslari bilan bu yerda tanishishingiz mumkin.<sup>2</sup>

<sup>2</sup> <https://depozit.uz/news/valyutalar-kursi-ozgarishining-asosiy-sabablari>

Milliy valyuta kursi, mamlakatning iqtisodiy tizimining muhim elementidir. O'zbekistonning so'm kursi, ko'plab ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi. Markaziy Bankning monetar siyosati, inflyatsiya darajasi, xalqaro savdo va neft narxlarining o'zgarishi so'mning qiymatini belgilashda asosiy omillar bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda valyuta kursining barqarorligi iqtisodiy o'sish va investitsiyaviy jozibadorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 10.2019 yildagi O'RQ-573-sonli "Valyutani tartibga solish to'g'risida" qonuni
2. Abdullajonov D. VALYUTA KURSLARINING MILLIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI //University Research Base. – 2024. – C. 280-283.
3. Boxodir o'g'li A. D. JAHON VALYUTA TIZIMI VA UNING ASOSIY MAQSADI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2024. – T. 3. – №. 27. – C. 89-90.
4. <https://depozit.uz/news/valyuta-kursi-bu-nima-va-u-qanday-shakllanadi>